QASHQADARYO VILOYATI
KOSON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180800, Qashqadaryo viloyati, Koson tumani Mustaqillik shoh ko‘chasi-104, Telefon 592-16-28, 592-16-16

2024 - yil 22 - fevral 48-4-60-Q/24 Koson tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 12 -fevral kunidagi «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida»gi PQ -68 sonli Qarori va viloyat hokimining 2024- yil 16- fevral kunidagi 88-4-0-Q|24 sonli qarorlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 12- fevral kunidagi «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida»gi PQ 68 -sonli qarori va viloyat hokimining 2024- yil 16-fevral kunidagi 88-4-0-Q|24- sonli Qarorlar ijrosini ta`minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi «Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonuning 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 12- fevral kunidagi «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to`g‘risida»gi PQ 68- sonli qarori va viloyat hokimining 2024 - yil 16- fevral kunidagi 88-4-0-Q|24- sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaroriga asosan:

- chaqirilish muddatini kechiktirish huquqiga ega bo‘lmagan 1997-2006

yillarda tug‘ilgan chaqiriluvchilarni 2024- yilning mart -aprel oylarida muddatli harbiy va Safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga chaqirilsin:

- muddatli harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo‘lmagan, biroq ushbu chaqiruv mobaynida Qurolli Kuchlar safiga chaqirilmaydigan fuqarolar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Nazarov):

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidan muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan fuqarolarni tantanali kutib olish tadbirlarini tashkilashtirish:

- Qurolli Kuchlar safini chaqiriluvchilar bilan butlashini ta`minlash maqsadida tuman chaqiruv komissiyasining ishini har tamonlama samarali tashkil etish:

- chaqiruv punktini targ‘ibot tashviqot ko‘rgazma vositalari bilan ta’minlash va tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish xonalarida zaruriy xaroratni va zamonaviy ko‘rgazmali bannerlar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish;

- safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga belgilangan pul badalini Mudofaa vazirligining «maxsus hisob raqami»ga to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lgan fuqarolarni tuman fuqarolarning o‘zini -o‘zi boshqarish organlari tomonidan va mahalla harbiy stol boshliqlari hamkorligida tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga taqdim etish hamda to‘lanadigan pul badallarini o‘z vaqtida to‘lashini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin;

- fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat tug‘risida» gi qonuni 45 – moddasiga asosan Mudofaa ishlari bo‘limi talabi va so‘rovnomasiga ko‘ra belgilangan tartibda chaqiriluvchilar va harbiyga majburlarni o‘z vaqtida xabardor etishlari va ularning chaqiruv bo‘yicha o‘z vaqtida chaqiruv punktlarida etib kelishlarini ta’minlashlari ustidan qattiq nazorat o‘rnatish topshirilsin.

4. Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (F Tursunov)ga:

- chaqiruv uchastkalarini zarur tibbiy asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta’minlash, chaqiriluvlarning laboratoriya tekshiruvlaridan sifatli o‘tkazilishini, yuqori malakali vrachlar tomonidan har tomonlama tekshirilib ko‘rilishini, chaqiriluvchilarni tibbiy tekshirishining xolisligini ta’minlash maqsadida tibbiy ko‘rik komissiyasini tashkil etish;

- tibbiy komissiya tomonidan to‘g‘ri tashxis qo‘yilishini qattiq nazorat qilish;

- chaqiruv komissiyasi ish faoliyati davrida tuman chaqiruv punktini doimiy tozaligini saqlash maqsadida kichik hamshira ajratish, chaqiriluvchilarni sog‘liklarini qayta tekshirish uchun tuman tibbiy muassalariga olib borish uchun tuman yig‘uv punkti ixtiyoriga tez tibbiy yordam mashinasi ajratilishini ta’minlash yuklatilsin.

5. Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i (Z. Xasanov)ga, «Koson» tuman gazetasi tahririyati boshlig‘i (O.Omonov)ga tumandagi mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda Respublika Mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg‘ulariga qaratilgan keng qamrovli targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borishni ta’minlasin.

6. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i I.Qutlimurodovga O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat tug‘risida»gi Qonuni talablariga asosan fuqarolarning chaqirivuni o‘tkazishda Mudofaa ishlari bo‘limiga yordam ko‘rsatish va ko‘maklashish, umumiy harbiy majburiyatni bajarishdan bo‘yin tovlayotgan chaqiriluvchilarni qidirib topish, ushlash va Mudofaa ishlari bo‘limiga olib borishni tashkil etish hamda Mudofaa ishlari bo‘limining so‘rovnomasiga asosan chaqiriluvchilarni viloyat ko‘rigiga olib borish va olib kelish vaqtida chaqiriluvchilarni xavfsizligini ta’minlash maqsadida bir nafar DAN xodimi va chaqiruv mavsumi davrida Mudofaa ishlari bo‘limi jamoat tartibini saqlash uchun bir nafar xodim ajratilsin;

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Nazarov) tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (Z.Xasanov) bilan birgalikda 2024- yil chaqiruv mavsumida safarbarlik chaqiruv rezervi safiga olingan fuqarolardan belgilangan pul badalini Mudofaa vazirligining «Maxsus hisobi»ga undirilishini qattiq nazoratga olsin;

8. Tuman bandlikka ko‘maklashish markazi rahbari (Sh.Avazov) ga Qurolli Kuchlar xizmatidan bo‘shatilgan fuqarolarni ularning xizmat davrida egallagan harbiy va fuqarolik mutaxassisliklarini hisobga olib, qonun hujjatlariga asosan belgilangan tartibda ishga joylashtirish choralari ko`rilsin;

9. Tuman gaz ta’minoti korxonasi rahbari (Sh.G’iyosov) ga, 2024- yil chaqiruv mavsumida tuman chaqiruv punktini isitilishi uchun tabiiy gaz bilan uzluksiz ta’minlash yuklatilsin.

10. Tuman elektr ta’minoti korxonasi rahbariga, chaqiruvni sifatli va samarali

o‘tishi uchun 2024 -yil 1-mart kunidan 31-aprelgacha tuman chaqiruv punkitini elektr tarmoqlari bilan uzluksiz ta’minlansin;

11. Tuman hududiy komissiyasi va zaxiradagi komissiya tarkibi (1-ilova)ga, Tuman butlash komissiya tarkibi (2-ilova)ga, 2024- yilgi chaqiruvda Mudofaa ishlari bo`limii huzuridagi tibbiy komissiya tarkibi (3-ilova)ga, 2024- yilgi chaqiruvda fuqarolarni muddatli harbiy va SCHR xizmatiga chaqiruv davrida chaqiruv uchastkasini navbatchi avtotransport bilan ta’minlovchi tashkilot va korxonalar ro‘yxati (4-ilova)ga,

12. Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (Z. Xasanov)ga:

- 2024- yilning mart-aprel oylaridagi chaqiruv yakunlari yuzasidan joriy yilning 10- may kuniga qadar tuman hokimligiga axborot berilsin;

14. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, chaqiruv komissiyasi raisi (X.Nazarov) zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**

Koson tuman hokimining
2024-yil 22-fevraldagi
48-4-60-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024- yil chaqiruvda tuman hududiy komissiya

TARKIBI

1. X.Nazarov - Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi

2. Z.Xasanov - Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i, komissiya raisi o‘rinbosari

A ‘ ZO L A R I

3. I.Qutlimurodov - Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari

4. A.Ashurova - Mahalla va oilalarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari

5. YA.Sattorov - Bosh hakam

6. I. Abdullaeva - Kotiba

2024- yilgi chaqiruvda fuqarolarni muddatli harbiy va SCHR xizmatiga tuman chaqiruv komissiyasining zaxiradagi

TARKIBI

1. U.Ochilov - tuman hokimligi bosh mutaxassisi, komissiya raisi

2. S.Bozorov - tuman mudofaa ishlari bo‘limi chaqiruv bo‘linmasi boshlig‘i komissiya raisi o‘rinbosari

A’ZOLARI

3. - tuman IIB XPB katta inspektori

4. – tuman mahalla va oilani qo‘llab - quvatlash bo‘limi vakili

5. M.Juraev – Bosh hakam o‘rinbosari (jarroh)

6. N.Uzoqova - Kotiba

Koson tuman hokimining
2024-yil 22-fevraldagi
48-4-60-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2024- yilgi chaqiruv mavsumida fuqarolarni muddatli harbiy hizmatga butlash tuman komissiya

TARKIBI

Butlash komissiyasi raisi

1.moyyor Q.S.Jo‘raqulov – 53943 harbiy qisim

A ‘ ZO L A R I

1. kapitan Sh.R. Djabborov - Qashqadaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi vakili

2. podpolkovnik N.F. Donyorov - Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi vakili

3. mayor M.M. Qayumov - O‘zbekiston Respublikasi DXX chegara qo‘shinlari vakili.

4. Kapitan J.Ergashov - Qashqadaryo viloyati bo‘yicha MG boshqarmasi vakili.

Koson tuman hokimining
2024-yil 22-fevraldagi
48-4-60-Q/24-son qaroriga
3-ilova

2024 - yilgi chaqiruv tuman hududiy tibbiy komissiyasi

TARKIBI

1.YA Sattorov - Bosh hakam

2. D.Xusanova - quloq-tomoq-burun kassalliklari shifokori

3. S.Xudoyqulova - ko‘z kasalliklari shifokori

4. M.Nurkamolov - tish kasalliklari shifokori

5. T.Gafforov - ichki kasalliklar shifokori

6. S. Maxmadiyorov - asab kasalliklari shifokori

7. SH. Ravshanova - ruhiy kasalliklar shifokori

8. N. SHaropova - teri –tanosil kasalliklari shifokori

9. N.Toshmurodov - jarroh

10.M. Yaxyoev - yuqumli kasalliklar shifokori

11. S.Tosheva - hamshira

12 M. Halimova - hamshira

13. I. Abdullaeva. - hamshira

14. O.Qosimova - hamshira

13. X. Aminov - fitiziatr

14 G.Ro`ziev - parazitologiya bo‘linmasi mudiri

15. G.Quzieva - sil kasalliklari hamshirasi

16. L.Pulotova. - yurak-qon-tomir hamshirasi

17. S. Xushvaqtova - EFGDS shifokori

18. M.Nuriddinov - EFGDS shifokori

19. B.Ergashev - UTT shifokori

20. YU.Toshpulotova - EKG tahlilchisi

21. SH.Qurbonova - qon-peshob tahlilchisi

2121. SH.Xusanova - Orastobonu

TIBBIY ZAHIRADAGI KOMISSIYASI TARKIBI

1. B.Ergashev - jarroh
2. E.Nurimov - ichki kasalliklari shifokori
3. X. Mirzaev - asab kasalliklari shifokori
4. A.Saidov - ko`z kasalliklari shifokori
5. N. Ashirova - labarant hamshira
6. YA Sattorov - teri- tanosil kassalliklari shifokori
7. U.Azimov - EKG tahlilchisi
8. G.Sanaqulova - ruhiy kasalliklari shifokori
9. Z. Avazova - tish kasalliklari shifokori
10. V.Xushvaqtov - quloq-tomoq-burun kasalliklari shifokori
11. N.Uzoqova - kotiba

Koson tuman hokimining
2024-yil 22-fevraldagi
48-4-60-Q/24-son qaroriga
4-ilova

2024 -yilgi chaqiruvda fuqarolarni muddatli harbiy va SCHR xizmatiga chaqiruv davrida tuman chaqiruv punktini texnik xodimlar bilan ta’minlash uchun biriktirilgan tashkilotlar

R O‘ Y X A T I

5.Koson tumani hokim maslahatchisi	- 1 kishi
1. Tuman madaniyat bo‘limi	- 1 kishi
2. Geofizika qon partiyasi	- 1 kishi
3. Koson Don OXJ	- 1 kishi
4. NFQ shinash OCHAJ	- 1 kishi